

Nodira SAFAROVA,
O'zDJTU tayanch doktoranti.
E-mail:nodirasafarova806@gmail.com
Tel: (95) 035 74 91

O'zMU dotsenti X.Maksudova taqrizi asosida

VIEWES OF SCIENTISTS ON THE PHENOMENON OF INTERFERENCE IN LINGUISTICS AND ITS FORMATION

Аннотация

The article discusses the history of the phenomenon of interference and the factors that motivated its formation. The types of interference and the factors causing them are analyzed.

Key words: Phenomenon of interference, phonetic interference, grammatical interference, syntactic interference, lexical interference, skill interference, external interference, internal interference.

МНЕНИЯ УЧЕНЫХ НА ФЕНОМЕН ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕЕ ФОРМИРОВАНИЕ.

Аннотация

В статье рассматривается история явления интерференции и факторы, мотивировавшие его формирование. Анализируются виды помех и факторы, вызывающие их.

Ключевые слова: Явление интерференции, фонетическая интерференция, грамматическая интерференция, синтаксическая интерференция, лексическая интерференция, интерференция навыков, внешняя интерференция, внутренняя интерференция.

TILSHUNOSLIKDA INTERFERENSIYA HODISASI VA UNING SHAKLLANISHI HAQIDA OLIMLARNING QARASHLARI

Аннотация

Maqolada interferensiya hodisasining paydo bo'lish tarixi va uning shakllanishiga turtki bo'lgan omillar haqida fikr yuritiladi. Interferensiyaning turlari va ularni keltirib chiqaradigan faktorlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Interferensiya hodisasi, fonetik interferensiya, grammatik interferensiya, sintaktik interferensiya, leksik interferensiya, ko'nikmalar interferensiyasi, tashqi interferensiya, ichki interferensiya.

Kirish. Til- millat ruhi, jamiyat ko'zgusi. Til har bir millatning xalq bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi belgisidir. Dunyodagi jamiki xalqlarning tili o'zining kelib chiqish tarixiga ega. Bugungi kunda dunyo miqyosida 6.000dan ziyod til mavjud deb qaraladi. Ushbu tillarning barchasi asrlar davomida dunyo sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ta'kidlash lozimki, bu borada o'zbek tili ham dunyo tillari qatorida o'z o'rniga ega. Zero, o'zbek millati qadimdan o'z yozuviga, adabiy tiliga ega bo'lgan xalqlardan biri hisoblanadi. Istiqbolli yillarda, ya'ni, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilga sanadan boshlab, tilimizni har tomonlama yuksaltirishga alohida e'tibor berildi. Barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. Bu esa bizning ona tilimizning qadrlanishiga sabab bo'ldi va uni chuqur isloh qilishga bo'lgan ehtiyoj tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Bu esa shundan dalolat beradiki, yurtimizning dunyo siyosiy va iqtisodiy maydonidagi o'rnini yanada yuksaltirish, ilm-fan va texnika sohasini chuqur isloh etish, jadal suratlarda o'sib borayotgan internet jarayonlari bilan parallel rivojlanish zarurligini uqtiradi. Mana shunday siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lish uchun, nafaqat o'zbek tilini keng targ'ib etish, balki, boshqa dunyo tillarini ham mukammal o'rganish – bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrini alohida ta'kidlagan: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam devor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilarining kamida ikkita chet tilini mukammal bilishi shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim[1].” Chet tiliga e'tiborni kuchaytirish nafaqat ingliz tilini, balki boshqa dunyo tillarini ham chuqur o'rganishni talab etadi. Hozirda xitoy,ingliz, arab,rus, fransuz va ispan tillari dunyo tillari hisoblanadi. Ispan tili eng ko'p muloqot vositasida sifatida qo'llaniladigan tillar orasida dunyoda xitoy tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mana shu jihatni inobatga olgan holda, ispan tilini O'zbekistonda va o'zbek tilini Ispaniyada o'qitilishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini o'rganib chiqish zarurligini taqozo etadi. Jumladan, o'zbek va ispan tilshunosligida yuzaga keladigan lingvistik muammolarni mukammal o'rganish, ularni bartaraf etish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va lug'atlar yaratish – tilshunos olimlarning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tili o'rganish jarayonida o'rganuvchilari tomonidan yo'l qo'yiladigan fonetik, morfologik va leksik xatolar tilshunoslikda “interferensiya” deb ataluvchi yangi bir tushunchani shakllantirdi. Bu tushuncha dastavval, fizika sohasida paydo bo'lgan. Interferensiya – lotin tilidagi “interfere – xalaqit bermoq” so'zidan olingan. “Bu juda qiziq va chiroyli manzara ma'lum shartlar bajarilganda, ikkita yoki bir nechta to'lqinlarning qo'shilishi natijasida kuzatiladi. Ikkita yorug'lik to'lqini qo'shib, bir-birini kuchaytiradi yoki susaytiradi”. [2] Tilshunoslikda interferensiya tushunchasining paydo bo'lishi G'arbda 1875-yilda polyak tilshunos olimi Bouden de Kurtenening “I.Bouden de Kurtenening rezian shevalarining tajribasi” [3] nomli kitobining yaratilishidan boshlandi. Biroq, tarixga nazar tashlasak, interferensiya hodisasining paydo bo'lishi ibtidoiy davrlardan boshlanganligining guvohi bo'lamiz. Biror bir qabila o'ziga qaraganda zaif bo'lgan boshqa bir qabila ustidan hukmronlik qilgan davrda, kuchsiz qabila ayollari va farzandlari asir (qul) sifatida olib ketilgan. Vaziyat taqozosi tufayli ikkita bir biriga notanish bo'lgan qabila vakillaring o'zaro muloqotga kirishlari zarur bo'lgan. Mana shu kabi holatlarda ular muloqot vositasi sifatida jestlardan foydalanishgan. Aynan shu jarayon interferensiya hodisasining ilk ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ular yangi tilni o'zlashtirish barobarida o'z tillarini ham unutishmagan, aksincha o'z tiliga solishtirilgan holda yangi tilni o'rganishgan. Shunday qilib ikki tillilik holatida ular bevosita tilmochlarga ham ehtiyoj sezishgan. Tilshunoslar bir tilni o'rgatish davomida turli to'siqlarga duch kelishgan, ya'ni

soʻzlashuv jarayonida oʻz ona tiliga yaqin bir holatda soʻzlarni talaffuz qilishgan. Bu jarayonda ular fonetik interferensiyaga duch kelishgan. Gap bolaklarining oʻrin almashinish holatlari tufayli grammatik interferensiyani paydo qilgan. Bevosita gap boʻlaklariga qoʻshimchalarni notoʻgʻri qoʻshish orqali sintaktik interferensiya vujudga kelgan. Ogʻzaki va yozma nutq jarayonida esa, soʻzlardan kerakli oʻrinda foydalana olishmasligi hisobiga leksik interferensiya hodisasini yuzaga keltirgan holatlarga duchkelishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotchilar interferensiya hodisasi oʻz ichiga yana maʼlum guruhlarni olishini va ularning har birini chuqur tadqiq etish lozimligini tushunishgan. 1915 –yilda L.V.Shcherba “Sharqiy Latusiya”[4] asarini yaratdi. Asarda tadqiqotchi olim maʼlum muddat nemis va polyak tillarining aralashuvi natijasida paydo boʻlgan Mozakov lahjasida gaplashuvchi xalqlar orasida yashadi va ularning tilini tadqiq qilishga harakat qildi. Shu yosinda olim tillarning bir-biriga taʼsirini toʻlaonli kash etdi. 1953-yilga kelib V.Vaynreichning “Til aloqalari” nomli asari nashr etildi va aynan ushbu asarda “lingvistik interferensiya” atamasi va unga xos xususiyatlar ochib berildi. V.Vaynreich oʻz asarida shunday yozadi: “Interferensiya bu ikki tillilik sharoitida til tizimlarining oʻzaro taʼsiri natijasidir, bu til aloqalari paytida yoki mahallai boʻlmagan tilning individual rivojlanishi bilan rivojlanadi, birinchisining taʼsiri ostida ikkinchi til tizimi normalarida sodir boʻladigan oʻzgarishlari ifodalanadi”.[5] Olimlar interferensiya hodisasiga nisbatan turlicha yondoshadilar, “Zamonaviy tilshunoslik kursi” asari muallifi Challs Xoket interferensiya haqida shunday fikr bildiradi: “Interferensiya bu alohida hodisa emas, balki gapiruvchi tomonidan ona tilidagi birliklarni ikkinchi tilda qoʻllab yuborishdan kelib chiqadi”[6].

Tahlil va natijalar. Tilshunos olimlar dastavval interferensiya hodisasiga nisbatan salbiy fikrda boʻlgan boʻlsalar, keyinchalik ularning qarashlari ijobiy tomonga oʻzgarib boshladi. K.K.Plotonov birinchilardan boʻlib “koʻnikmalar interferensiyasi” tushunchasini fanga olib kirdi. Uning fikriga koʻra: “Koʻnikmalar interferensiyasi – ona tili taʼsiri ostida chet tilini bilish qobiliyati rivojlanadi yoki aksincha, kamayadi”[7],- degan fikrni nazarda tutadi. L.V.Bondarko: “Adabiy til normalari va shevalarning aloqasi oʻrtasida ham interferensiya hodisasi kuzatiladi”[8], degan fikrni ilgari surdi, shuningdek u oʻz qarashlari orqali tillararo interferensiyadan tashqari bir til doirasida ham interferensiya hodisasi kuzatilishini taʼkidladi. Uning nazariyasiga koʻra maʼlum tillar oʻrtasidagi interferensiya bu-tashqi interferensiya: uning til va shevalararo oʻrtasidagi interferensiya bu- ichki interferensiya ekanligini maʼlum qildi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin, yaʼni tillar oʻrtasida interferensiya hodisasining paydo boʻlishi ikki xil koʻrinishda boʻlishi mumkin. Birinchisi sodda koʻrinishdagi interferensiya va ikkinchisi murakkab koʻrinishdagi interferensiya. Sodda koʻrinishdagi interferensiya – bu, bobo tili bitta turkumga tegishli boʻlgan tillar doirasida yuz beradi, chunki bunday tillarda gap boʻlaklarining joylashishi bir xil, shuningdek talaffuz jihatdan oʻxshash holatlar ham koʻp uchraydi. Murakkab koʻrinishdagi interferensiya esa, bobo tili turlicha boʻlgan tillar doirasida yuz beradi. Bunda gap boʻlaklarining joylashishi butunlay oʻzgaradi. Talaffuz jihatidan ham bir-biridan batamom farq qiladi. Misol uchun oʻzbek va ispan tillarini namuna sifatida keltirish mumkin. oʻzbek tilda kesim gap oxirida keladi, ispan tilida esa, u egadan keyin qoʻllaniladi.

Interferensiya hodisasi nafaqat, Yevropa olimlarini qiziqtirib qolmasdan, Sharqda ham keng qamrovda oʻrganilgan. Uning ilk koʻrinishlari Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Beruniy, Forobiy, Behbudiy va Mahmud Qoshgʻariy kabi allomalar ijodida uchraydi. Mahmud Qoshgʻariyning XIX asrdagi “Devonu lugʻotit turk” asari faqatgina tarixiy asar boʻlib qolmasdan, balki undan turkiy til va oʻzga tillarni oʻrganish uchun grammatik qoʻllanma sifatida ham foydalanilgan. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-’adab” asari ham arab tilida foydalaniladigan barcha soʻz va iboralarni qamrab olgan va ularning etimologiyasi ham keltirilgan[9]. Ushbu asardan arab, fors, chigʻatoy(oʻzbek), mogʻul va turk tillaridagi leksemalarning oʻxshash va farqli jihatlarini oʻrganishda foydalanilgan. Sharqda Mahmudxoja Behbudiy oʻz davri xulosalaridan kelib chiqib shunday degan: “ Ikki emas toʻrt til kerak. Biz turkistoniylargʻa turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, yaʼni oʻzbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari oʻzbekiy soʻylashur. Forsiy boʻlsa, madrasa va udabo tilidir. Bukungʻacha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari taʼlim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda sharʼiy va diniy kitoblar arabiy taʼlim berilsa ham, mudarrisilarni taqdiru tarjimalari forschadur. Bu qoida, yaʼni dars kitobi —arabiy, muallim — turkiy, taqdiru tarjimini forsiyligi xila ajibdur.Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydir. Chunonchi, eski yorliqlardan maʼlum boʻlurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulqazov adabiyot tahrirlari forsiy yozilari ekan. Bu qoidalar zotan yaxshidur. Ammo bora-bora yoinki kela-kela usuli taʼlim va kitobatgʻa ehmol paydo boʻlub, hozir bir darajagʻa kelibdurki, ahli savod yoinki ahli ilmni yuzdan toʻqson toʻqquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiygʻa molik yoʻqdur. Yaʼni usuli taʼlim va tadrismi isloh etmak kerak”[10].

Xulosa va takliflar. Xulosaga sifatida quyidagi fikr keltirib oʻtiladi: Interferensiya hodisasini bilish va oʻrganish qadim davrlardan boshlangan boʻlib, u muttasil-tadrijiy rivojlanishda. Fan va texnikaning, internet va uning imkoniyatlarining jadal suratlar bilan rivojlanishi, xorijiy tillarni oʻrganishga boʻlgan talabning keskin ortishini hisobga olsak, interferensiya hodisasining yangi oʻrganilmagan jihatlari shakllanaveradi va fanga yangi tadqiqot ishlarini tadbiiq etish holatlari uzluksiz davom etadi.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni//Xalq soʻzi, 2017-yil, 8-fevral-№28(6722)
2. Wikipedia <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>.
3. “LINGVISTIK INTERFERENSIYAVA UNING TIL OʻRGANISHDAGI AHAMIYATI” Safarova Malika Hikmatovna. Magistr Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.(Buxoro-2023y.)
4. Алимов, В. В. Интерференция в переводе (на материале профессионально ориентированной межкультурной коммуникации и перевода в сфере профессиональной коммуникации) : дисс...докт. филол. наук : 10.02.19 / В. В. Алимов ; Ин-т языкознания РАН. – М., 2004. – 40 с.
5. Алишова, Р. К. Грамматическая интерференция в английском и кыргызском языках / Р. К. Алишова // Вестник БГУ им. К. Карасева. – Брянск, 2012. – № 1 (21). – С. 218-220.
6. Murodova Moxigul. (2023). INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI. SCHOLAR, 1(5), 43–47. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1743>

7. Murodova Moxigul. (2023). INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI. SCHOLAR, 1(5), 43–47. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1743>
8. Catford J. C. A linguistic theory of translation. Lnd., Oxford Univ. Press.
9. Farangiza Kurbanova. (2021). INTERFERENSIYANI VUJUDGA KELTIRUVCHI INTRALINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK FAKTORLAR. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 2(3), 10-18. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/997>
10. <https://n.ziyouz.com/kutubxona> “Oyna” jurnali, 1913-yil 1-son, 12-14 betlar.